

KADZUO ISIGURO DISTOPIK ASARLARIDA EVFEMIZMLARNING BADIY FUNKSIYASI

Sohiba Begmatova

*O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti
mustaqil tadqiqotchisi*

Annotatsiya: Ushbu maqola zamonamizning mashhur adibi Kazuo Ishiguroning distopik romanlarida evfemizmlarning qo'llanilishiga bag'ishlanadi. Tadqiqotning asosiy maqsadi yozuvchining ushbu badiiy usuldan qanday foydalanganini tahlil qilish hamda evfemizmlarning asarlardagi o'rni va badiiy funksiyasini o'rganishdan iborat.

Kalit so'zlar: Kadzuo Isiguro, evfemizmlar, syujet, distopiya, umumbashariy mavzular, salbiy voqelik, ijobiy ma'no.

Yozuvchining mahorati so'zlarga jon baxsh etadi. Shuni unutmaslik joizki, so'z o'z o'rnida ishlatilsagina so'zning "yuragi" ura boshlaydi. Birgina kerakli o'rinda ishlatilgan so'z voqeani, qahramonning ichki olamini jonlantirib yuboradi. Yozuvchi hayotni xarakterlar va manzaralar vositasida aks ettirar ekan, jonli xalq tili boyliklaridan ham, adabiy til normalaridan ham keng foydalanadi. <.....> Yozuvchi asarning mavzusi, voqealarning mohiyati va personajlarning xarakteriga qarab, so'z va iboralar tanlaydi, gap qurilishi usullaridan, dialektlardan, inversiya, arxaizm, neologizm, jargon va boshqa leksik resurslardan foydalanadi⁵⁶. Darhaqiqat, yozuvchi o'z asari shakllanib, adog'iga yetgunga qadar qahramonlari dunyosi bilan yashaydi va ularning o'y-xayollarini kitobxonga yetkazish uchun zargarona mohirlik bilan so'zlarni saralaydi. Tadqiqot davomida Kadzuo Isiguro asarlarida evfemizmlarning mahorat bilan qo'llanilishi aniqlandi. Tadqiqotning ushbu qismida adibning distopik asarlarida evfemizmlarning qo'llanilishi va ularning asar jozibadorligini ta'minlashidagi vazifasi haqida so'z yuritiladi.

Shvetsiyalik tadqiqotchi Gabriella Griffin e'tiroficha, "Kadzuo Isiguroning "Meni qo'yib yuborma" asari ilmiy aralashuvlar yoki tibbiy muolajalar haqida batafsil ma'lumotlarni taqdim etishga e'tibor qaratmaydi. Asarda kitobxon e'tiborini ilmiy jarayonga jalb qiladigan laboratoriyalar, oq xalatli shifokorlar yoki tibbiyotga doir tasvirlar tafsilotlari yo'q. Ilmiy amaliyotni amalga oshirish sifatida fan bilan shug'ullanmaydi, lekin bir jihat borki, muallif ko'taradigan muammolar jarayon sifatida emas, balki ta'sir sifatida ushbu amaliyot bilan chambarchas bog'liq⁵⁷". "Meni qo'yib yuborma" romanida ilmiy fantastika yoki distopiya asarlarida keng qo'llaniladigan, o'z ilmiyligiga ishora qilish uchun ixtiro qilingan maxsus lug'atdan yoki neologizmlardan foydalanilmaydi. Bu esa atrof-muhit, ilm-fan o'zgarishlarini aniqlaydigan mutaxassis bilimlarini, jarayonlarni ifodalovchi neologizmlardan voz kechishga sabab bo'lgan. Adib distopik asarlarida har qanday salbiy ma'noni anglatuvchi so'z va holat uchun maxsus "yumshoq so'zlar" lug'atidan foydalangan.

Adabiyotshunoslikda "Evfemik ma'no anglashilgan so'zlar va iboralar adabiyotning qadim adiblari, jumladan, Demokrit, Arastu va Aflotun davrida ham qiziqish uyg'otgan"⁵⁸, degan muhim qarash bor. Lekin N. Potapova: "Evfemizmlar dastlab XII-XV asrlarda ingliz tilida paydo bo'ldi va so'ngra fransuz madaniyatiga ko'chdi. Bu hodisalar o'z navbatida tilda aks-sado berdi"⁵⁹, degan ilmiy qarashni ilgari suradi. So'zlarga qo'shimcha ohang berish, ularni sayqallash o'quvchiga asar obrazlarini talqin qilishda va ularning ruhiyatini

56 Бобоев Т. Адабиётшунослик асослари. – Т.: Ўзбекистон, 2002. – Б.158.

57 Gabriele G. Science and the Cultural Imaginary: the Case of Kazuo Ishigoro's Never Let Me Go. Textual Practice 23(4), 2009., 653. <https://doi.org/10.1080/09502360903000570>

58 Античная теория языкознания и стиля. Под. Ред. О.М. Фрейденберга. – СПб.Питер, 1996.

59 Потапова Н.М. Краткий обзор некоторых исследование эвфемизмов. Язык, сознание, коммуникация. – № 34. – М., 2007. – С. 28.

kashf qilishda yordam beradi. Zero, adabiyotshunos olim Bahodir Karim e'tirof etganidek, badiiy ijodda topilgan va o'rnida ishlatilgan bitta noyob so'zning quvvati ham yozuvchi mahoratidan darak beradi⁶⁰. Evfemizm atamasi grek tilidan olingan bo'lib, ko'pchilik mualliflar fikriga ko'ra, noo'rin birlikning o'rinli birlikka almashinuvi sifatida qaraladi⁶¹. Evfemizm hodisasini o'rgana turib, albatta, uning kelib chiqishi bilan bog'liq ijtimoiy-madaniy muhitni inobatga olish kerak⁶².

Tadqiqotchilari Virdjiniya Yeng o'zining *“Kadzuo Isiguroning ‘Meni qo'yib yuborma’ romanida o'lim va xotira”* nomli ilmiy maqolasida adibning asardagi evfemizmlarni qo'llash madaniyatiga izoh berar ekan, jumladan, shunday deydi: *“Kadzuo Isiguroning ushbu romanida evfemizmlar ikki yirik vazifani bajaradi: ular, avvalo, klonlash korxonasini niqoblash uchun, qolaversa, o'lim bilan bog'liq tushunchalarni ifodalash uchun xizmat qiladi. Shu bilan birgalikda, insonlarning o'lim va unga bog'liq tushunchalar haqida so'zlash tarzini aks ettirib, asarda o'lim, vafot etish g'oyalari ifodalash uchun ijobiy, jarangdor so'zlarni qo'llaydi”*⁶³. Darhaqiqat, *“Meni qo'yib yuborma”* asarida ilmiy uslubga xos so'zlarning qo'llanilishi kuzatilmaydi. Vaholangki, biz bilgan va o'qigan distopik adabiyotlarda ilmiy til bilan birgalikda neologizmlar ham qo'llanilganligining ko'p bora guvohi bo'lganmiz. Kadzuo Isiguro buning o'rniga asarning birinchi sahifasidayoq tibbiy tilga ishora berish maqsadida *“g'amxo'r”* va *“xayriyachi”* so'zlarini qayta-qayta ishlatadi.

Muallifning *“Meni qo'yib yuborma”* romanining dastlabki satrlari o'quvchiga unchalik ham tushunarli bo'lmagan roviy xotiralari bilan boshlanadi. Bu o'rinda adib asar qahramoni Ket X.ning hikoyasida bir nechta evfemizmlarni o'z o'rnida mahorat bilan qo'llagan: *– “My name is Kathy H. I'm thirty-one years old, and I've been a carer now for eleven years. That sounds long enough, I know, but actually they want me to go on for another eight months, until the end of this year”*⁶⁴. Bu yerda e'tiborimizni tortgan birgina *“carer”* so'zi haqida so'z yuritadigan bo'lsak, ingliz tilining izohli lug'atlarida *“carer”* so'ziga *“g'amxo'r”, “vasiy”, “qarab turuvchi”* va *“enaga”* ma'nolari anglashilgan izohlar berilgan. Tabiiyki, kitobxon asarning mutolaasi davomida asarning boshida keltirilgan *“carer”* so'zi o'z o'rnida emas, balki evfemik ma'no kasb etganining guvohi bo'ladi. Ket X.ning vazifasi o'n bir yil davomida o'z tana a'zolarini bosqichma-bosqich boshqa tirik insonlarga berayotgan klonlarga ruhiy madad berish edi. Klonlarni keyingi bosqich donorlik operatsiyalariga tayyorlash va oradagi vaqt masofasini ular bilan birga o'tkazish bo'lgan. Asarda *“carer”* so'zidan tashqari *“donation”* – *“xayriya”, “complete”* – *“tugash”, “normals”* – *“oddiyalar”, “possibles”* – *“ehtimollar”, “veterans”* – *“faxriylar”, “unzipping”* – *“ochish”* kabi evfemik ma'no kasb etuvchi so'zlarni uchratish mumkin.

“Donation” ya'ni *“xayriya”* so'zi organlarning majburiy ko'chirib o'tkazishni anglatadi va klonlar uchunchi, ba'zi hollarda to'rtinchi *“xayriya”* jarayonidan so'ng vafot etishadi.

Atoqli tilshunos A. Omonturdiyevning talqinicha, evfemizmlar tushunchaning salbiy mohiyatini, xossasini to'la yashira olmaydi – xotiradan bartaraf qilolmaydi⁶⁵. Darhaqiqat, so'zlovchi salbiy ma'no anglatuvchi so'z yoki jumlagacha qanchalik ko'rkam lisoniy libos

60 Карим Б. Сўз сўйлашда ва улardan жумла тузишда узоқ андиша керак. Абдулла Қодирийнинг ўзбек тилига доир қарашлари. <https://daryo.uz/k/2021/04/10/soz-soylashda-va-ulardan-jumla-tuzishda-uzoq-andisha-kerak-abdulla-qodiriyning-ozbek-tiliga-doir-qarashlari/> (murojaat sanasi 17.08.2022)

61 Кадирова Х. Абдулла Қодирийнинг эвфемизм ва дисфемизмдан фойдаланиш маҳорати. Филол. фан. фалс. д-ри (PhD) ...дисс. – Тошкент, 2011. – Б. 27.

62 Крысин Л.П. Эвфемизмы в современной русской речи. Русский язык конца столетия. – Москва.: ЭКСМО, 1996. – 432 с.

63 Virginia Yeung. Mortality and Memory in Kazuo Ishiguro's *Never Let Me Go*. Transnational Literature Vol.9 no. 2, May 2017. – P.2. <http://fhrc.flinders.edu.au/transnational/home.html> (murojaat sanasi 17.10.2022)

64 Tarjima: Mening ismim Ket X. va yoshim o'ttiz birda. Men o'n bir yildan beri g'amxo'r bo'lib ishlab kelmoqdaman. Bilaman, bu anchayin uzoq muddat, lekin ular meni yil oxirigacha yana sakkiz oy ishlashimni xohlashayapti. (Tarjima muallifga tegishli) Ishiguro K. *Never Let Me Go*. – London: Faber and Faber, 2005. – P.3.

65 Омонтурдиев А. Ўзбек нутқининг эвфемик асослари. – Т.: Абдулла Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти, 2000. – Б.12-14.

kiydirishga harakat qilmasin, u soʻzning asl mazmun-mohiyat anglatuvchi maʼnosidan voz kecha olmaydi. Asarda “oʻlim” maʼnosini anglatuvchi **“complete”** soʻzi olimni yuqorida bergan izohining yaqqol isbotidir: *after the fourth donation, even if you've technically completed, you're still conscious in some sort of way; how then you find there are more donations, plenty of them, on the other side of that line; how there are no more recovery centres, no carers, no friends; how there's nothing to do except watch your remaining donations until they switch you off. It's horror movie stuff, and most of the time people don't want to think about it.*⁶⁶ Asarda “vafot etish” degan jumlaning uchratilmaymiz, buning oʻrniga **“complete”** yaʼni **“tugamoq”**, **“tugallanmoq”** soʻzlari ishlatilgan. Bunday evfemizmlar oʻlim tushunchasi bilan chambarchas bogʻliq, zero klonlash insonning oʻlimini nazorat qilish istagidan kelib chiqqan fandir⁶⁷.

Rus adabiyotshunosi V. Vinogradov taʼkidlaganidek, *“Baʼzan bunday turdagi sirli noaniqlik oxirigacha oshkor etilmaydi. Bu ifoda etilmagan, ammo noaniq taxmin qilingan yoki yaxshiroq, oldindan aytib boʻladigan maʼnodan olingan hissiy taassurotlarning keskinligiga tayanadi ... Koʻrinib turibdiki, bunday hollarda ataylab umumiylik tufayli eng sodda va chuqur ahamiyat kasb etmaydigan soʻzlar tanlanadi”*⁶⁸. Tibbiy terminlarning koʻp qoʻllanilmaganini Isiguroning badiiy uslubiga oddiylik nuqtayi nazaridan izohlash mumkin. Bu, oʻz navbatida, kitobxon tushunishidagi har qanday qiyinchilikni bartaraf etadi. “Meni qoʻyib yuborma” romanidagi “oddiylar” – **“normals”**, “ehtimollar” – **“possibles”** kabi evfemik maʼno kasb etuvchi soʻzlar shular jumlasidandir.

Muallif **“normals”** evfemizmini klonlarning aksi sanalmish jamiyatda yashovchi boshqa oddiy insonlarga nisbatan qoʻllagan va bu soʻzlar esa oʻz oʻrnida asar qahramonlarining maxsus lugʻatiga aylangan: *Someone else said what we had to remember was that the guardians were “normals”*⁶⁹. Koʻrinib turibdiki, asar qahramonlari oʻzlarining jamiyatning boshqa insonlaridan farq qilishlarini ong-shuuri bilan anglab turibdi va shu bois “oddiylar” jamoasining hayoti, turmush tarzi ularda har doim ulkan qiziqish uygʻotadi.

“Meni qoʻyib yuborma” romanidagi yana bir **“possibles”**, yaʼni “ehtimollar” evfemizmi borki, klonlar bu soʻzni oʻzlarining asliyati xususida soʻzlaganlarida qoʻllashadi. Asar qahramonlari bu yorugʻ olamga kimningdir hujayrasidan namuna sifatida olinib, soʻngra yaratilganliklarini, oʻsha kimdir hozir ham qayerdadir yashayotganligini idrok etishadi. *“The basic idea behind the possibles theory was simple, and didn't provoke much dispute. It went something like this. Since each of us was copied at some point from a normal person, there must be, for each of us, somewhere out there, a model getting on with his or her life. This meant, at least in theory, you'd be able to find the person you were modelled from. That's why, when you were out there yourself—in the towns, shopping centres, transport cafés—you kept an eye out for “possibles”— the people who might have been the models for you and your friends”*⁷⁰. Asarda klonlar shahar markazidagi ofislarning birida Rutning “ehtimol”ini koʻrganliklarini va Rut iloji

66 Tarjima: ...agar siz tugagan boʻlsangiz ham, toʻrtinchi “xayriya”dan keyin tanangizning qaysidir qismi uygʻoq boʻlib turadi. Bunday holda navbatdagi “xayriya”lar birin-ketin davom etadi va bu hollarda sizga hech qanday gʻamxoʻrning, rehabilitatsiya markazining yoki hamrohning keragi yoʻq. Siz bu jarayonlarni butunlay tugamaguningizga qadar kuzatib yotaverasiz. Bu qoʻrqinchli kinoga oʻxshaydi va koʻpchilik bu haqida umuman oʻylashni ham xohlamaydi. (Tarjima muallifga tegishli) Ishiguro K. Never Let Me Go. – London: Faber and Faber, 2005. – P. 274.

67 Yeung V. Mortality and Memory in Kazuo Ishiguro's Never Let Me Go. Transnational Literature Vol. 9 no. 2, May 2017. <http://fhrc.flinders.edu.au/transnational/home.html> (murojaat sanasi: 17.10.2022)

68 Виноградов В.В. Поэтика русской литературы. – М.: “Наука”, 1976. – С. 447.

69 Tarjima: “Kimdir oʻqituvchilarimiz “oddiylar”lardan boʻlganliklarini eslab koʻrishimizni aytdi.” (Tarjima muallifga tegishli) Ishiguro K. Never Let Me Go. – London: Faber and Faber, 2005. – P. 94.

70 Tarjima: Ehtimollar gʻoyasi ortidagi asosiy fikr oddiy va koʻp tortishuvlarga ham sabab boʻlmas edi. Buni mana bunday tushuntirsa ham boʻladi. Har birimizga oʻz vaqtida oddiy odamdand nusxa koʻchirilgan va u odam qayerdadir oʻz hayotini davom ettirayotgan boʻlishi kerak. Bu esa nazariy jihatdan, sizga nusxa olingan odamni topishingiz mumkinligini anglatadi. Shuning uchun siz oʻzingiz tashqarida boʻlganingizda, yaʼni shaharlarda, savdo markazlarida, transport, kafelarida siz va doʻstlaringiz uchun namuna boʻlishi mumkin boʻlgan “ehtimollar”ni kuzatib yurasiz. (Tarjima muallifga tegishli) Ishiguro K. Never Let Me Go. – London: Faber and Faber, 2005. – P. 137.

boricha tezroq borib, u ayol bilan tanishishi lozimligi uqtirishadi. Rut ham, o'z navbatida uning "ehtimol"i chiroyli va shinam ofisda ishlashi muqarrar ekanligini, chunki o'zi ham bir umr ana shunday ofislarning birida xodim bo'lib ishlash orzusida ekanligiga, bu esa Rut va uning asliyatida orasida o'ta yaqinlik borligiga ishora beriladi. Afsuski, qizning quvonchi uzoqqa cho'zilmaydi va o'z "ehtimol"i deb o'ylagan ofis xodimasi shakl-u shamoyil jihatidan unga o'xshamasligini, ular orasida hech qanday bog'liqlik yo'qligini tushunadi.

*"He'd shown us a list of chores when we'd first arrived, and the students who were already there—"the veterans," as Hannah called them—had long since worked out a rota which we kept to conscientiously. There really wasn't much else we could do other than report leaking gutters and mop up after floods"*⁷¹. Asarda **"the veterans"** – "faxriylar", "yoshi kattalar", "tajribalilar" ma'nolarini anglatib, yetarlicha g'amxo'rlik qilib faoliyat yuritgan va donorlik vaqti yetib kelgan klonlarga nisbatan ishlatiladi. Ularni oldinda bosqichma-bosqich davom etadigan jarrohlik operatsiyalari, va nihoyat o'lim kutib turipti.

A.M. Kasayevning fikriga ko'ra, evfemiya'dagi uyushmalar tashkil etish jarayoni quyidagicha bo'ladi: qo'rquv, jirkanish yoki uyat ta'sirida ma'ruzachi u yoki bu denotatsiyani (obyekt yoki hodisani) bevosita ifodalashdan qochadi. Chunki to'g'ridan-to'g'ri denotat o'ziga mos keladigan denotat bilan shunchalik chambarchas va odatiy bog'langanki, u so'zlovchi yoki tinglovchida denotat bilan bir xil tuyg'ularni uyg'otadi. Shuning uchun ularni yumshatish uchun boshqa belgidan foydalanish kerak. Bunday ifoda turi bir darajada yoki boshqa darajada chalg'ituvchi kuchga ega bo'lsa, o'z maqsadiga erishgan hisoblanadi, ya'ni nutq harakati ishtirokchilari ongida taqiqlangan doiradan tashqaridagi denotativ belgilar bilan bog'lanish yuzaga keladi⁷². "Meni qo'yib yuborma" romanida qo'rquv va jirkanish ma'nosini anglatuvchi evfemizmlardan yana biri **"unzipping"** so'zidir: *Tommy never liked it much when the unzipping stuff came up again, but by then the days of his being teased were past and no one connected the joke with him anymore. It was just done to get a laugh, to put someone off their dinner – and, I suppose, as some way of acknowledging what was in front of us. And this was my original point. By that time in our lives, we no longer shrank from the subject of donations as we'd have done a year or two earlier; but neither did we think about it very seriously, or discuss it. All that business about "unzipping," that was typical of the way the whole subject impinged on us when we were thirteen*⁷³. Asardagi "ochish" evfemizmi klonlarning ichki tana organlarini boshqa insonga ko'chirish uchun tibbiy jarrohlik vositasida tanani kesish va ochish jarayonini tasvirlash uchun ishlatilgan. E'tirof etish zarurki, Kadzuo Isiguro asarning mazkur dahshatga to'la qismida **"unzipping"** so'zini ishlatish bilan chegaralandi. So'zning ma'nosi qanchalar fojiaiy ma'no kasb etishini kitobxon asar qahramonlarining ruhiy kechinmalarini ifodalagan badiiy tasvir vositalari orqali anglaydi⁷⁴.

Xulosa o'rinda aytish mumkinki distopik romanlarida evfemizmlar badiiy ifoda vositasi sifatida muhim rol o'ynaydi. Ular haqiqatni yumshatib, qahramonlarning og'riqli va fojiali

⁷¹ Tarjima: Biz bu yerga birinchi kelganimizda u bizga uy ishlari ro'yxatini ko'rsatdi. Xannaning tili bilan aytganda, "faxriylar" deb ataluvchi talabalar bu yerdagi kun tartibini allaqachon ishlab chiqishgan edi. Biz bu kun tartibiga vijdonan amal qildik. Aslini olganda, sizib chiqayotgan suv haqida ma'lumot berishdan yoki suvdan qolgan izni tozalashdan bo'lak boshqa ishimiz yo'q edi. (Tarjima muallifga tegishli) Ishiguro K. Never Let Me Go. – London: Faber and Faber, 2005. – P.114.

⁷² Кацаев А.М. Эвфемизмы в современном английском языке: Автореф.дис...канд.филол.наук. – Л., 1977. – С.16.

⁷³ Tarjima: Tommiga "ochish" voqeasi bilan bog'liq hikoya yoqmas edi, ayniqsa uni o'sha hazil bilan jahlini chiqarganlaridan keyin bu masalada hech kim Tommi bilan gaplashishga haddi sig'madi. Bu hazil kimnidir kutib turgan muqarrar azobdan chalg'itish uchun qilinganligi aniq. O'ylashimcha bu bizni kelajakda nima kutib turganligini anglatish usuli ham edi. Bu – mening asl nuqtayi nazarim. Hayotimizning o'sha davri kelib, biz baribir xayriya mavzusidan chekinmadik. Lekin oldingidek bu haqida jiddiy o'ylamas yoki muhokama qilmas edik. Ammo "ochish" mavzusi o'n uch yoshligimizda bizga qanday ta'sir qilgan bo'lsa, hozir ham shunday ta'sir qiladi. (Tarjima muallifga tegishli) Ishiguro K. Never Let Me Go. – London: Faber and Faber, 2005. – P.86.

⁷⁴ Begmatova S.M. Kadzuo Isiguroning "Meni qo'yib yuborma" distopik romanida evfemizmlar va ularning asar mohiyatini ochishdagi roli // Ilm sarchashmalari. – Urganch, 2023. – №2. – B. 152-155. (10.00.00. № 3)

taqdirlarini yanada ta'sirliroq ifodalashga xizmat qiladi. Adib bu usul orqali distopik dunyolarini yanada real va ta'sirchan tarzda yaratadi. Shu bois, uning asarlarida evfemizmlar nafaqat til bezagi, balki hayotiy haqiqatlarni fosh etuvchi kuchli badiiy vosita sifatida namoyon bo'ladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Античная теория языкознания и стиля. Под. Ред. О.М. Фрейденберга. – СПб.Питер, 1996.
2. Begmatova S.M. Kadzuo Isiguroning "Meni qo'yib yuborma" distopik romanida evfemizmlar va ularning asar mohiyatini ochishdagi roli // Ilm sarchashmalari. – Urganch, 2023. – №2. – B. 152-155. (10.00.00. № 3)
3. Бобоев Т. Адабиётшунослик асослари. – Т.: Ўзбекистон, 2002. – Б.158.
4. Виноградов В.В. Поэтика русской литературы. – М.: "Наука", 1976. – С. 447.
5. Gabriele G. Science and the Cultural Imaginary: the Case of Kazuo Ishigoro's Never Let Me Go. Textual Practice 23(4), 2009., 653. <https://doi.org/10.1080/09502360903000570>
6. Кадирова Х. Абдулла Қодирийнинг эвфемизм ва дисфемизмдан фойдаланиш маҳорати. Филол. фан. фалс. д-ри (PhD) ...дисс. – Тошкент, 2011. – Б. 27.
7. Карим Б. Сўз сўйлашда ва улардан жумла тузишда узоқ андиша керак. Абдулла Қодирийнинг ўзбек тилига доир қарашлари. <https://daryo.uz/k/2021/04/10/soz-soylashda-va-ulardan-jumla-tuzishda-uzoq-andisha-kerak-abdulla-qodiriyning-ozbek-tiliga-doir-qarashlari/> (murojaat sanasi 17.08.2022)
8. Крысин Л.П. Эвфемизмы в современной русской речи. Русский язык конца столетия. – Москва.: ЭКСМО, 1996. – 432 с.
9. Омонтурдиев А. Ўзбек нутқининг эвфемик асослари. – Т.: Абдулла Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти, 2000. – Б.12-14.